



*Po’lat o’tda toblanadi, odam mehnatda*

# Metallurg inbari



O’zbekiston metalluriya kombinati aksiyadorlik  
jamiyatining ko’p nusxali gazetasi

2023-yil 28-mart № 3 (1525)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

Xalqaro xotin-qizlar  
bayrami arafasida Navli  
prokat sexining metall  
saralovchisi Marhabo  
Arziyeva “Mehnat  
shuhrati” ordeni, Xalq  
iste’moli mollari ishlab  
chiqarish sexining  
sirlovchisi Mavjuda  
Matmurodova “Mo’tabar  
ayol” ko’krak nishoni  
bilan taqdirlandi.



Navro’z umumxalq bayramini butun respublikamizda bo’lganidek bekobodlik metallurglar ham katta tantanalar bilan keng nishonladilar. Shahrimizning “Yoshlar bog’i”da “Har kuning Navro’z bo’lsin, jonajon O’zbekistonim!” shiori ostida o’tkazilgan bayram tadbirlari bekobodliklarda yorqin taassurotlar qoldirdi.

## BUGUNGI SONDA

Bayram shukuhi

Navro’z ayyomi keng nishonlandi

3

Nigoh

Oylar sultoni

4

## Xabardormisiz?

“За металл” gazetasining  
birinchi soni chiqqaniga  
80 yil bo’limoqda

6

## Bugunning gapi

Tadbirkorlikmi yoki  
insofsizlik?

7

## Bor gap

“Ryodan”chilar kim?

8

## So’ragan edingiz

Zararni kim qoplaydi?

9

## Salomatlik

Barcha kasalliklar  
sababchisi

10

## Tafakkur qil

Umidni so’ndirmang

12

## AYOLLARGA HURMAT – XALQIMIZGA XOS YUKSAK QADRIYAT

Mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat, jamiyat hayotidagi mavqeini, islohotlar jarayonidagi faolligini oshirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, avvalo, onalik va bolalikning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning turmush sharoitini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlarda ifodasini topmoqda. Shu bilan birga ayollarning

mehnat qilishlari uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilib, ularga alohida hurmat va ehtirom ko'rsatilmoqda. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mamlakatimizda bir guruh xotin-qizlarning mukofotlanishi ham mo'tabar ayol zotiga ehtirom ko'rsatish borasidagi amaliy ishlarning uzvii davomidir. Kombinatimizda mehnat qilayotgan ayollarning ham mukofotlanganlar orasida borligi biz uchun yanada quvonarlidir.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoni bilan davlat va jamiyat hayotida faol bo'lgan bir guruh ayollar mukofotlandi. Ular orasida "O'zmetkombinat" Ajning Navli prokat sexida metall saralovchi vazifasida mehnat qilib kelayotgan Marhabo Arziyeva ham bor. Marhabo opa "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi.**

### MEHNATIDAN QADR TOPAYOTGANLAR

– Mamlakatimizda ayollar ga ko'rsatilayotgan e'tibor, g'amxo'rlik, umuman, inson qadrini ulug'lash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yurtimizdagi barcha ayollarni quvontirmoqda. Men ana shu e'tiborni kamtarona mehnatlarim e'tirofi misolida his etdim. Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Davlatimiz rahbarining farmoni asosida "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandim. Menga ko'rsatilgan e'tibordan boshim ko'kka yetdi. Bu mukofotni jonajon kombinatimiz, hamkasblarning mehnatda erishayotgan yutuqlari samarasini deb bilmagan, – deydi M. Arziyeva.

Marhabo Arziyeva mehnati bilan yurtimiz traqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlardan biri. 35 yillardiki u bir joyda metall saralovchi bo'lib mehnat qilib kelmoqda.

M. Arziyeva 1969-yil Bekobod shahrida oddiy oilada tug'ilgan. Otasi Imomnazor bobo kombinatimizda, Martenda ishchi bo'lib ishlagan edi. Onasi Surma aya esa uy bekasi bo'lgan. Ikkita akasi kombinatda ishlagan. Ayni vaqtida uchinchi akasi Orif va opasi Matluba Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexida ishlaydilar. Turmush o'rtog'i Ochil aka Energetika sexida elektrrogaz payvandchisi, o'g'li Muhiddin Metalluriya uskunalarini ta'mirlash sexida elektrrogaz payvandchisi, qizi Maftuna va kichik o'g'li Shahzod kombinatda bo'lmasada o'zlariga mos kablarda mehnat qilib kelishmoqda.



Xalqimizda "Mehnat kishini ulug'laydi", degan ibratli naql bor. Darhaqiqat, kishi qaysi kasbda ishlamasin, halol va vijdonan ishlasa, jamoasi, el-yurt orasida hurmat-e'tibor qozonadi. Marhabo opa 1988-yildan boshlab hozirgi kunga qadar Navli prokat sexida samarali mehnat qilib kelmoqda.

Bu sex "O'zmetkombinat" Ajning eng asosiy bo'linmalardan biri. Bu sexda ishlab chiqarilayotgan prokat mahsulotlarini mamlakatimizning barcha qurilish ob'yektlarida uchratish mumkin. Bu mahsulotlarsiz uy-joylar, inshootlar, korxonalar qurilishini tasavvur ham qilib bo'lmay qoldi. Hattoki qator xorij davlatlarida ham bu prokatchilar jamoasi-

da ishlab chiqariladigan mahsulotlardan zamonaviy turli qurilishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Marhabo opa Navli prokat sexi jamoasi o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega xodimlardan sanaladi. U mehnat faoliyati davomida yoshlarga murabbiylik qilib, o'zining boy tajribasini o'rgatib kelmoqda.

– Bu mukofot menga kuch, shijoat beradi. Bundan keyingi faoliyatimda ko'rsatilgan e'tiborga, Prezidentimiz ishonchiga munosib javob qaytarishga, yurtimiz ravnaqi, obodligi yo'lida yanada faol ishlashga harakat qilaman, – deydi "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi.

O'z kasbining ustasi metallurglar jamoasida ishlab kam bo'lindi. El-yurt orasida hurmat-e'tibor topdi.

**Shukur ALIYEV.**

### EHTIROM

Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida Navli prokat sexining metall saralovchisi Marhabo Arziyeva "Mehnat shuhrati" ordeni, Xalq iste'moli molлari ishlab chiqarish sexining sirlovchisi Mavjuda Matmurodova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ijroiya apparati majlislar zalida bo'lib o'tgan yig'ilishda kombinat rahbarlari, hamkasbleri Marhabo Arziyeva va Mavjuda Matmurodovani mukofot bilan tabriklashdi. "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov tabrik so'zida ularga berilgan mukofot kombinatning ham yutug'i ekanligini ta'kidlab o'tdi. Tadborda so'zga chiqqanlar M. Arziyeva va M. Matmurodovaga eng yaxshi tilaklarini bildirishdi.

Ularga milliyligimiz ramzi chopon, do'ppi kiydirildi, qimmatbaho sovg'alar da taqdim etildi.

**T. SOBIROVA.**

### MO'TABAR AYOLLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi farmoniga muvofiq, faol va tashabbuskor, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni targ'ib etishda ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni taqdirlash maqsadida "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etilgan edi.

Bu yil 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida mazkur ko'krak nishoni bilan turli sohalarda yetakchi, matonatli, fidoyi mo'tabar ayollardan 314 nafari taqdirlandi. Ular orasida "O'zmetkombinat" AJ Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexining sirlovchisi Mavjuda Matmurodova ham bor.

M. Matmurodova 43 yildan beri XIMICH sexida mehnat qilib, sirlangan idishlarning sifatli chiqishida hissasini qo'shib kelmoqda. Mavjuda opa ishda boshqalarga namuna bo'lish bilan bir qatorda oilada mehrimon ona hamdir. Uch qiz, bir o'g'lini tarbiyalab voyaga

yetkazgan M. Matmurodova hozirda farzandlari, nabiralari qurshovida baxtli hayot kechirmoqda.

– Yurtimizda ayollarga, biz kabi onalarga berilayotgan e'tibordan quvonyapman, – deydi Mavjuda opa. – Xususan, bu yil men uchun bahor ayyomi yana bir shukuh bilan keldi. "Mo'tabar ayol" mukofotiga munosib ko'rildim. Bu xotin-qizlar bayramida men uchun unutilmas sovg'a bo'ldi. Biz kabi ayollarga davlatimiz rahbari tomonidan ko'rsatilayotgan ehtiromidan judayam mammunman.

"Onalar – butun bashariyatning tarbiyachilaridir" deb jadidchi bobomiz Abdurauf Fitrat juda to'g'ri aytgan. Chunki ayollar jamiyatning ertangi egalarini dunyoga keltirib, yurtimiz ravnaqi, farovon hayotimiz yo'lida xizmatda bo'ladigan komil insonlarni tarbiyalaydi. Zero, ayol millat tarbiyachisidir. Unga ishonch bildirilsa, qaysi sohada bo'lmasin, albatta, muvafaqiyatga erishadi.

**Bahodir RAHMONQULOV.**



## NAVRO'Z AYYOMI KENG NISHONLANDI

**Navro'z - azaliy milliy qadriyatlar timsoli, mehr-oqibat, saxovat va e兹gu-lik ramzi hisoblanadi.** Ushbu bayram xalqimizning bag'rikenglik, yaxshilik, hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlarini o'zida namoyon etadi. Bu umumuxalq bayramini butun respublikamizda bo'lganidek bekobodlik metallurglar ham katta tantanalar bilan keng nishonladilar.



Bayram munosabati bilan spartakiada, kombinat boshqaruvi raisi kubogi uchun mini-futbol turniri tashkil etilib, tarkibiy bo'linmalardagi oshxonalarda asosiy milliy taomlarimizdan palov va sumalaklar dasturxonlarga tortildi.

Bu yilgi Navro'z bayramiga bag'ishlangan asosiy tantanalar esa shahrimizdagi "Yoshlar bog'i"da bo'lib o'tdi.

19-mart kuni "Yoshlar bog'i"da karnay-surnay sadolari yangrab, hamshaharlarimiz bayram shodiyanalariga chorlandi. "O'zmetkombinat" AJ Bekobod shahar hokimligi bilan hamkorlikda bu maskanda bayram tadbirlarini tashkil etdi.

"Har kuning Navro'z bo'ssin, jonajon O'zbekistonim!" shiori ostida o'tkazilgan bayram tadbirlari bekobodliklarda yorqin taassurotlar qoldirdi.

"Yoshlar bog'i"da Metallurglar madaniyat saroyi ijodiy guruhrining chiqishlari, kombinat ishchi-xodimlari tomonidan ham musiqiy sahna ko'rinishlarini hamshaharlarimiz olqishlar bilan kutib olishdi. Bayram saylida bolajonlarning o'ynab-kulishlari uchun bolalar o'yingohi (batut) o'rnatilgan bo'lib, unda bolajonlar mazza qilib o'ynashdi. Dorbozlar o'yinlari ham ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Kombinat tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Tojikiston, Rossiya, Hindiston, Koreya va boshqa xalqlar milliy qadriyatlarini urf-odatlarini aks ettirgan "Milliy qadriyatlar" ko'rik-tanlovi ko'rgazmalarini tashkil etdi.

"O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi

- bosh direktor Rashid Pirmatov hamda Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyevlar bayram saylida tashkil etilgan ko'rgazmalar bilan tanishdi.

"Milliy qadriyatlar" ko'rik-tanlovi ko'rgazmalarida kombinat tarkibiy bo'linmalari tomonidan azaliy urf-odatlarimizga muvofiq dasturxon bezatildi. Bahoriy taomlar, osh, shirmoy kulchalaru, patirlar, doshqozonlarda tayyorlangan sumalak dasturxonlarga tortildi. Bahoriy go'zallikka mos qizlar o'zbekona odatlariga binoan kelin salomlar qildilar.

Ko'rik-tanlov yakunlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari, shuningdek, qardosh Tojikiston hamda Rossiya Federatsiyasi vakillari dan iborat jamoalar birinchi o'rinni egalashdi. Ikkinci o'rinn Xorazm, Samarqand viloyatlari, Hindiston, Koreya, Tatariston jamoalariga nasib etdi. Uchinchi o'rinni Jizzax, Sirdaryo, Namangan, Andijon viloyatlari va Toshkent shahri vakillari dan iborat jamoalar qo'lga kirtdilar.

G'olib va sovrindorlarga tegishli darajadagi diplom va pullik sertifikatlar topshirildi.

Yuqori ko'tarinkilik bilan umumuxalq sayli shaklida o'tgan Navro'z shodiyanalari bekobodliklar ruhiyati va kayfiyatini ko'tarish bilan birga, ularning qalbida shukronalik, mehr-oqibat, e兹gulik, qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Rustam QARSHIYEV.



## FAXRIYLAR E'ZOZDA

Navro'z bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan "Baxt uyida"da bayram dasturxonasi yozildi.

Bayramni Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov, O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi raisi Aleksandr Farmonov, ushbu Kengashning Bekobod shahar hududiy filiali raisi Ilhom Qurbonovlar tabrik so'zlar bilan ochishdi. Ular yig'ilganlarni Navro'z ayyomi bilan tabriklab, o'zlarining samimiyl tilaklarini bildirishdi.

320 dan ortiq mehnat faxriylari taklif etilgan bayram tadbirida 14- va 15-mart kunlari erkaklar o'rtasida shaxmat hamda ayollar o'rtasida erkin suzish sport turлari bo'yicha mehnat faxriylari ishtirokida o'tkazilgan musobaqa g'oliblari taqdirlandi.

G'oliblarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Tantanali bayram davomida Metallurglar madaniyat saroyi badiiy havaskorlik guruhlari o'zlarining konsert dasturlarini namoyish etishdi.



## XUSH KELDING, MOHI RAMAZON!

Alloha shukrlar bo'lsinki, o'n ikki oyning sultonni, rahmat va mag'firat oyi bo'lgan Ramazon oyini ham qarshiladik. Alloh taolo bu oyni yaxshilik va taqvo oyi qildi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ham bu oyda barchani faol bo'lighga, bu oyning har bir kuni, soatini g'animat bilishga chaqirib, bu oyni ko'ngil so'rash, boshqalarga yordam qo'lini cho'zish va rahm-shafqat oyi ekanini bayon qilganlar.

Bu oy hurmatidan jahannam eshlari yopiladi. Insonlarga Allohnинг cheksiz rahmati yog'ilib, ularga yaxshi imkoniyatlar yaratiladi. Ulardan oqilona foydalaniib, Ramazon oyini ibodatda o'tkazgan har bir banda do'zaxdan ozod qilinadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazon oyini intiqlik bilan kutar, uning yaqinlashgani kishilarga eslatib turar va sahobai kiromlarni bu oy bilan tabriklab, munosib tayyorgarlik ko'rishga chorlar hamda, "Sizlarga Ramazon kirib keldi, muborak oy. Alloh sizlarga uning ro'zasini farz qildi", der edilar.

Alloh taolo Ramazon ro'zasini Qur'oni karimning Baqara surasida quyidagi oyat bilan farz qildi:

"Ey, imon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro'za farz qilindi. Shoyadki taqvodor bo'lsalingiz" (Baqara surasi, 183-oyat).

Ro'zadorlarga beriladigan ajr-mukofotlar naqadar ulug' bo'lishi haqida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar:

"Jannatning bir eshigi bo'lib, u Rayyon deb ataladi. Qiyomat kuni undan faqat ro'zadorlar kirishti, ulardan boshqa biror odam kirmaydi. Shunda "Ro'zadorlar qani?" deyiladi. Shunda ro'zadorlar turadilar. Ularning oxirgisi kirib bo'lishi bilan eshik berkitiladi. So'ng u eshikdan boshqa hech kim kirmaydi" (Imom Buxoriy, Muslim va Nasoiy rivoyati).

Ramazon tinchlik elchisi, go'zal axloq va yaxshi odob fursatidir. Birov bilan tortishish, janjallahish asli yaxshi ish emas. Ramazonda bunday amallardan yanada uzoqroq bo'lish, hatto birov so'ksa ham, haqorat qilsa ham, unga ro'zadorligini aytishdan boshqa javob qaytarilmaydi.

Ramazon ruhan poklanish, axloqan yuksalish oyidir. Ramazonda shaytonlar kishanlanib, insonni

yomonlikka chorlovchi vasvasalari cheklanib, kishilarga o'zlarini tarbiyalashga imkon beriladi. Binobarin, bu oyda qilingan gunohning jazosi qattiqroq bo'ladi. Shu bois, hadislarda Ramazonda barcha axloqsizliklardan, gunohlardan poklanishga qattiq targ'ib qilingan. Hatto, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim yolg'on gapirishni va unga ko'ra amal qilishni qo'ymasa, uning taom va ichimligini tark etishiga Allohnинг ethtioji yo'q", deganlar.

Shuningdek, bu muborak oyda qilingan sadaqa va xayru ehsonlarning savobi yanada ko'p va ajri ulug' bo'ladi. Shuning uchun ham, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazonda har doimgidan ham ko'ra ko'proq saxovat qilar edilar. Shu bois ham muslimmonlar qadimdan zakot ibodatini Ramazon oyida ado etishga odatlanishgan.

O'tgan yillardidek, bu yilgi Ramazon oyida ham shahrimizning barcha masjidlarida Qur'on karim

xatmlari o'tkazilmoqda. Taroveh namozlari va boshqa ibodatlarda yurtimiz ravnaqi, el-yurt tinchligi, rizq-ro'zimiz mo'l bo'lischini so'rab, Alloh taologa duo va iltijolar qilinmoqda.

Fursatdan foydalaniib, barchalaringizni Muborak Ramazon oy bilan tabriklaymiz. Alloh taolo bu oyda qiladigan toat-ibodatlarimiz, xayru sahovatlarimiz hamda duo-yu iltijolarimizni qabul aylasini!

**Ergashboy HAMIDOV,  
Bekobod shahar "Oq masjid"  
jome masjidi imom xatibi.**



## O'Z KELAJAGIMIZ UCHUN OVOZ BERAYLIK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatida "Avval - inson, keyin - jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerakligi, hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarurligi to'g'risida ta'kidlab o'tilgan edi.

Prezidentimizning shaxsan tashabbuslari bilan boshlangan yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi keng jamoatchilik, siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlari, ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari, ziyolilarning faol ishtirokida ko'rib chiqildi va bu borada 220 mingdan ziyod taklif kelib tushdi.

Uzoq davom etgan muhokamalardan so'ng Oliy Majlis palatalari tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarori qabul qilindi. Qonun loyihasi "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarida rasman e'lon qilindi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan amaldagi Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilib, modalar soni 128 tadan 155 taga oshmoqda. Konstitutsiyamizning amaldagi 275 ta normasi 434 taga ko'paymoqda, ya'ni, amaldagi Konstitutsiya 65 foizga yangilanmoqda.

Joriy yilning 30-aprel kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan umumxalq referendumi ovoz berish byulletenida Siz "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini qabul qilasizmi?" degan savol bo'ladi.

Konstitutsiyamizga kirititayotgan o'zgartirishlarga ko'ra O'zbekiston "suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat" ekanligi hamda ushbu qoidalarni o'zgartirish mumkin emasligi belgilanmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'min-



lash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha yangi kafolatlar belgilanmoqda.

Inson huquqlari, erkinliklari himoyasining konstitutsiyaviy asoslari yanada mustahkamlanib, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkinmasligi, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvilar, pochta, elektron xabarlar va boshqa xabarlarni sir saqlash huquqi faqat sud qaroriga asosan cheklanishi mumkinligi, mulk daxlsizligi va u bilan bog'liq huquqlarning ta'milaniishi davlat tomonidan kafolatlanishi belgilanmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilib, yoshlar masalasida Konstitutsiyaga alohida bob

kiritilgan.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyaga ko'ra davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralarini amalga oshiradi, shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalgalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalaniш va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari belgilab berilmoqda.

Konstitutsiyada xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etish maqsadida Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash, Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabi vakolatlar bevosita xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadigan Qonunchilik palatasi vakolatiga o'tkazilmoqda. Oliy majlis palatalari vakolatlari kengaytirilmoqda.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirilishi va hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilish vokalati tugatilmoqda.

Fuqarolarga sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida Konstitutsiyaviy suda murojaat qilish huquqi berilmoqda

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Yangi Konstitutsiya loyihasi bu - davlatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimizning tinch hayoti, huquq va erkinliklari, yoshlarimizning yorqin va farovon kelajagining mustahkam huquqiy asosidir. Shu o'rinda shahrimiz fuqarolaridan, shu jumladan metallurglardan ham 30-aprel kuni bo'lib o'tadijan umumxalq referendumida ishtirok etishlari ni so'rab qolamiz.

**Xusnuddin BIBAYEV,  
Bekobod shahar Adliya  
bo'limi boshlig'i.**



## XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Davlat dasturi 7 ta yo'nalish, 100 ta maqsad va 293 ta bandni o'z ichiga qamrab olgan.

Davlat dasturida aholi farovonligini oshirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ko'plab ustuvor vazifalar belgilandi.

Shuningdek, dasturda qonunchilikni takomillashtirish, inson qadri uchun islohotlarni, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ijtimoiy masalalar, yoshlar, ayollar va boshqa toifalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab muhim tadbirdilar nazarda tutilgan.

2023-yilda bu Davlat dasturi tadbirdilarini amalga oshirish uchun 20 trln. so'm va 11,5 mlrd. AQSH dollarini yo'naltirilishi belgilangan.

Ushbu farmonda belgilangan barcha chora-tadbirlar aholining farovon hayot kechirishi va inson qadrini yanada yuksak darajaga ko'tarilishiga qaratilgan.

## YIRIK KORXONALAR ISLOH QILINADI

2023-YIL 1-MART KUNI "DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI ISLOH QILISH JARAYONLARINI JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI PREZIDENT QARORI QABUL QILINDI.

2023-2025-yillarda isloh qilinadigan va operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar (31 ta) ro'yxati tasdiqlandi. Bu ro'yxatdan Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari, "O'zmetkombinat", "O'zbekneftgaz", "O'ztrangaz", "O'zbekiston temir yo'llari", "O'zavtosanoat", "Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyatlari kabi yirik korxonalar ham o'rinn olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga mazkur korxonalarini isloh qilish vazifasi yuklandi.

Strategik islohotlar agentligi "UzAssets" investitsiya kompaniyasi" AJ va mazkur qarorga ilovada ko'rsatilgan davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat aksiya paketi (ulushi) bo'yicha aksiyador (ishtirokchi) funksiyasini amalga oshiradi.

Mazkur korxonalar ustav kapitalidagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) "UzAssets" investitsiya kompaniyasi" boshqaruviga beriladi.

"UzAssets" investitsiya kompaniyasi"ga, jumladan, quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

- iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega yirik korxonalarini isloh qilish, shu jumladan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish hamda xususiy sektorni jalg qilish;

- korxonalarning rentabelligi va operatsion samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda biznes-ja-

rayonlarni optimallashtirish;

- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv bo'yicha tavsiyalarini joriy etish orqali o'ziga boshqaruvga berilgan korxonalarining samarali boshqarilishini va barqaror rivojlanishi ni ta'minlash hamda ularning qiyamatini va investitsion jozibadorligini oshirish;

- o'ziga boshqaruvga berilgan korxonalarining ijroiya organi va kuzatuv ken-gashiga mahalliy hamda xorijiy malakali menejerlarni jalg qilish.

2023-yil 1-iyulgacha "UzAssets" investitsiya kompaniyasi" tomonidan unga boshqaruvga berilgan korxonalarining biznes-rejalari qayta ko'rib chiqiladi.

### MA'LUMOT UCHUN:

"UzAssets" investitsiya kompaniyasi" Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-iyundagi 381-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. "UzAssets" kompaniyasi"ning asosiy maqsadi – davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarini sotish jarayoniga tayyorgarlik ishlarini tashkil etish hamda xalqaro standartlarga asosan yirik davlat korxonalarini sotish bo'yicha investorlar bilan muzokaralar olib borish. Kompaniyaning yagona aksiyadori – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hisoblanib, davlat ulushi mavjud bo'lgan yirik korxonalarini sotish va ularni birlashtirish yuzasidan xalqaro tajribani o'rganish, amalda qo'llash va tajribalarini yig'ish bo'yicha agentlikka platforma bo'lib xizmat qiladi.

## O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

### BOSH HARFLAR IMLOSI

**66.** Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidonna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov kabi.

**67.** Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yarqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal), Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markazi Qizilqum kabi.

**68.** Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

**69.** Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navro'z" (xayriya

jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanova" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich) kabi.

**70.** Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.

**71.** Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o'rinosari, Mудо-фаа vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Sog'lioni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

**72.** Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: "O'zbekiston Zahramoni" (unvon), "Oltin



Yulduz" (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "Sog'lom avlod uchun" (orden), "O'zbekistonda xizmat ko'satgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a'lochisi" (nishon) kabi.

**73.** Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O. Yoqubov).

**74.** Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lмаган ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziлади: AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'ginga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

\* "За металл" gazetasining 80 yilligiga \*

## ZAVOD ISHGA TUSHMAY GAZETA TASHKIL ETILGAN EDI

Suronli urush yillarda, xalqimiz cheksiz azob-uqubatlar bilan eng og'ir davrlarni boshidan kechirayotgan bir davrda, front orti hisoblangan Respublikamiz hududiga ko'chirilayotgan korxonalar ichida bizning zavodimiz ham bo'lgan. O'sha davrni boshidan o'tkazgan odamlar hozir deyarli qolmadi. Shunday og'ir bir damlarda hali zavod ishga tushmay, uning qurilishi qizg'in ketayotgan bir paytda 1943-yil 27-aprel kunida "За металл" va "Metall uchun" gazetasining birinchi soni chiqdi. Zamona zayli bilan ko'p o'tmasdan gazeta faqat rus tilida chiqarila boshlanadi.

Gazetaning dastlabki sonlarini varaqlagan kishi o'sha davrda qurilish nihoyatda qiyinchilik bilan borganini, odamlar 12-15 soat lab ishlaganlarini, texnika, qurilish vositalari yetishmasligi sababli ishlarning ko'p qismi qo'lida bajarilganligini, ob'ektlarni o'z vaqtida topshirishda ishchi, muhandis, boringki barcha qurilish qatnashchilarining qahramonona mehnatini ko'z oldiga keltiradi. Uy-joy qurilishi, korxona kelajagi uchun kadrlar tayyorlash va o'sha davrdagi boshqa dolzarb masalalari ham gazeta sahifalarida muntazam berib borilgan. Ayniqsa, jamoa erishgan katta muvaffaqiyat, Marten sexining ishga tushirilgan 1944-yil 5-martdagi voqealari yoritilgan maqolalar juda ta'sirli.

Gazeta sahifalarini varaqlab urushdan keyingi bir necha yillar ichida birin-ketin ishga tushgan ob'ektlarda quvvatlardan to'liq foy-

dalanib, oylik, yillik rejalar ortig'i bilan bajarilganligini va bu yutuqlarga erishishda ulkan hissa qo'shgan insonlarni bilib olamiz.

Ilg'orlardan Hofiz G'aniyev, Said Nurutdinovga, keyinroq Asad Ergashyeva mehnat Qahramoni degan yuksak unvon berilgan. Ular to'g'risidagi maqolalarni o'qigan kishi o'sha davrlarni yanada chuqurroq his etishi muqarrar.

Mustaqillik yillari bekobodlik metallurglar uchun shiddat bilan kechib, yangilanish, yuksalish, rivojlanish davri bo'ldi. Bekobodlik metallurglardan Abdurahmon Abdurazzoqov, Olim To'ychiyev



O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi.

So'nggi yillarda "O'zmetkombinat" Ajda amalga oshirilayotgan islohotlar barchanering e'tiborida. Kombinat investitsiya loyihalari asosida yangi quvvatlarni ishga tushiryapti. Mahsulotlar ishlab chiqarish yildan yilga ko'payib, ularning turi va sifati

"За металл" gazetasining sobiq muharrirlari, iste'dodli, tajribali jurnalistlar N. Gigoyan, M. Aliyev, I. V. Mixin, A. I. Sisoyev, V. M. Suxaryev, R. Ya. Hamidov, N. A. Mirgorodskiy, A. A. Degterev gazetaning nafaqat metallurglar, balki bekobodliklarning sevimli nashri bo'lib qolishi uchun ko'p kuch, g'ayrat sarfladilar. O'tgan asrning 80-90-yillarida gazetada muharrir o'rinnbosari bo'lib i s h l a g a n , tajribali metallurg va ijodkor

A. A. Sklyarov "За металл"-da o'zining ilmiy-amaliy va ommabop m a q o l a l a r i bilan metallurglarning sevimli muxbiriga aylangan edi. Ularga jamoatchi muxbirlar ham yaqindan yordam berib kelganlar.

Endilikda dolzarb masalalarni, metallurglarning ish tarzini, hayot faoliyatini yoritishda muharrir Nigora Ahmedova, o'rinnbosari Ravshan Boltaboyev va ishchi-muxbirlar gazetaning mazmundor chiqishiga harakat qilishmoqda.

tobora oshib, yaxshilanib bormoqda.

Gazeta sahifalarini varaqlab bu jarayonlarni shundoqqina ko'z oldingizga keltirasiz.

Undagi maqolalar faqatgina axborot manbaigina emas, balki odamlarni mehnat g'alabalari sari ruhlantirish, kishilar ma'naviyat va ma'rifatini oshirish manbasi ham bo'lib qolmoqda.

## GAZETAGA MUHABBATI BALAND MUHARRIR

"За металл" gazetasida ko'plab ajoyib insonlar ishlagan. Ular dan biri A. A. Degterevdir. U 36 yil gazeta muharriri bo'lib ishlagan. Mamlakatimizda bir gazetada shuncha yil muharrir bo'lib ishlagan boshqa jurnalistni topish qiyin.

Anatoliy Aleksandrovich Degterev 1940-yilda Volga bo'yida tug'ilgan. Ma'lumoti bo'yicha huquqshunos. U institutni bitirgandan so'ng O'zbekistonga yo'llanna bilan ishga keladi. Bekobodda huquq-tartibot idoralarida, so'ng 10-maktabda tarix, davlat va huquq asoslari fanlaridan dars bergan.

1972-yil mart oyida O'zbekiston metallurgiya kombinatining "За металл" gazetasiga muharrirlikka tayinlanadi. Shu yil fevral oyining oxirida 10-maktabga shahar rahbariyatidan qo'ng'iroq qilishib, A. Degterevning zudlik bilan kelishini so'rashadi.

Shahar rahbarlaridan biri T. Ya. Voronina uni xonasida qabul qilib gazetada ishlashga taklif qiladi. Biroq bu sohada umuman ishlama gan yigit bu taklifni qabul qilmaydi. Shunda rahbar qat'iy ravishda: "Shahardagi yagona gazeta - "За металл"ga Siz muharrir etib tayinlanasiz. O'zbekiston metallurgiya zavodiga borib ishni qabul qilib oling", deydi hech qanday e'tirozlariga o'rinn qoldirmaydigan ohangda.

Bu suhbatdan so'ng bir hafta o'tgach, O'zbekiston metallurgiya zavodi direktori I. Muxamedovning buyrug'i bilan A. A. Degterev "За металл" gazetasiga muharrir etib tayinlanadi.

- Gazetani qabul qilib olganimdan so'ng menda "Ishni nimadan boshlash kerak? Gazetani qanday chiqarish kerak?" degan savollar paydo bo'ldi, - deydi Anatoliy Aleksandrovich. - Avvalo, maslahat so'rab shaharning eng keksa, tajribali jurnalisti, zavod gazetasining sobiq muharriri N. A. Mirgorodskiyga murojaat qildim. Biz u bilan uyida gaplashdik. Nikolay Aleksandrovich gazetada nima yozish mumkin va nima yo'qligini tushuntirdi.

Shundan so'ng A. A. Degterev gazeta tahrir hay'ati a'zolari bilan ham uchrashadi. Ular - A. M. Rastigayev, N. A. Botichyev, V. M. Suxaryev, A. A. Sklyarov ham uni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga gazetaga material to'plashda yordam berishadi. Oradan bir hafta o'tib, Bekobod tumani gazetasining mas'ul kotibi Mashrab Ro'zimatovning yordami bilan muharrir sifatida "За металл" gazetasining birinchi sonini bosmaxonada nashrdan chiqaradi.

Yillar o'tishi bilan Anatoliy Aleksandrovichda gazeta ishiga qiziqish, muhabbat paydo bo'ldi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak butun mehnat faoliyatini shu sohaga bag'ishladi. 2008-yilgacha o'zi uchun juda qadrondan bo'lgan "За металл" gazetasida muharrir bo'ldi.

- Gazetaning o'z vaqtida, o'qi-



mishli chiqishida jamoatchilar bilan samarali hamkorligimiz, ularning yordamlari juda muhim rol o'ynagan. Ishchi muxbirlarning maktablari, maqolalari, ular bilan suhbatlar gazetada asosiy joyni egallar edi. Elektrda po'lat eritish sexi muhandisi A. Jarkova, kombinat markaziy laboratoriysi laboranti O. Mironenko, 1-navli prokat sexining ustasi E. Kataki, martenden A. Sklyarov, 2-navli prokat sexining mexanik-ta'mirlovchisi A. Muratov, uy-joy kommunal bo'limi muhandisi V. Semyonov "За металл" gazetasining eng faol jamoatchi muxbirlari bo'lishgan, - deya xotirlaydi, - A. Degterev.

Marten sexida ko'p yillar ishlagan, hatto Misrda metall eritishda

mahalliy mutaxassislarga ustozlik qilgan A. Sklyarov 1978-yil gazetaga muharrir o'rinnbosari etib tayinlanadi. Tajribali metallurg bo'lish bilan birga u ham iste'dodli ijodkor bo'lgan. Ukrainada maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq mahalliy gazetalarda bir qator maqolalari chop etilgan.

Bu mahoratli jurnalistlar ko'p yillar birgalikda "За металл" gazetasida ishlashdi.

**Suratda:** "За металл" gazetasi muharriri A. Degterev, o'rinnbosari A. Sklyarov gazetaning navbatdagi sonini bosmaxonada chiqarishmoqda. 1989 yil.



## ZAMON BILAN HAMNAFAS

Kombinatning maktabgacha ta'lif muassasalari bu nafaqat kichkintoylarga g'amxo'rlik qilinadigan muassasa bo'libgina qolmay, balki ularda to'laqonli ta'lif jarayonlari ham olib borildi. Kichkintoylarning sog'lom va barkamol voyaga yetishlari uchun bu maskanlarda yaxshi sharoitlar yaratilgan. Bu esa yaqin kelajakda albatta o'z natijalarini beradi.

"O'zmetkombinat" AJ yordamida maktabgacha ta'lif muassasalarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Har bir muassasada kompyuterlar, rangli, lazerli prin-

terlar, videoproektorlar, zarur stendlar, har bir guruh uchun o'quv magnit taxtalari mavjud. Kombinat tomonidan maktabgacha ta'lif muassasalari avval hech qachon bo'lmagan barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy muzlatgichlar, shuningdek, ulkan kir yuvish mashinalari, idish-tovoq, oshxona anjomlari, chinni, nikel bilan qoplangan, sirlangan idishlar, qirg'ichlar va chovli kabilalar bilan ham ta'minlangan.

Pedagogik jamoa esa zamon bilan hamnafas holda ishlashga harakat qilmoqda.

N. BEKMURODOVA.

## BU TADBIRKORLIKMI YOKI INSOFSIZLIKMI?

*Bu maqolani o'tgan yili yozgan edim. Biroq ba'zi sabablarga ko'ra gazetada chop etilmay qolgan edi. Balki maqolada ko'tarilgan mavzu faqat o'tgan yilga xosdir, bu yil bunday holatlar bo'lmas degan hayolda edim. Afsuski, bu boradagi holat avvalgidan ham yomonligiga amin bo'lib, yana shu mavzuda maqola yozdim. Balki u kimlargadir to'g'ri xulosa chiqarishga turtki bo'lar...*

### MARHAMATLI KIM?

O'zaro munosabatlarda hamisha adolatli, insofli, halol bo'lish haqiqiy insoniy fazilatlar deb qabul qilin-gan. Muqaddas islam dinimizning ta'lifotlariida ham mana shularga buyuriladi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom aytdilar: "Jan-natga faqat marhamatli bo'lgan odam kiradi". Sahobalar dedi: "Ey Allohnning rasuli biz hammamiz mar-hamatlimiz". Shunda Rasululloh sal-lolohu alayhi vasallam: "Faqtin o'ziga nisbatan marhamatli bo'lganlar marhamatli emasdir. Marhamatli deb ham o'ziga, hamda o'zgalarga nisbatan marhamatli bo'lganlarga aytildi" - dedilar.

Kishining boshqalarga marhamatli bo'lishi har qanday vaziyatda ham insonlarga ozor bermasligi va imkon qadar yordam berishligidir.

Biroq negadir ba'zilar bu haqda nazаримда о'лаб ham ko'rmaydilar. Undaylar o'zaro munosabatlardan faqat o'zi uchun foyda qidiradilar. Amaldorlar o'rtasida ularni korupsionerlar, bozorlarda esa insofi kamlar deymiz.

### DOVUCHCHA BUNCHA QIMMAT?

Erta bahordan Toshkent bozorlarida dovuchcha paydo bo'ldi. Bir qadoqda 10-12 donadan sotishdi. 11-mart kuni 135 ming so'mdan

narx qo'yib sotishgan. 1 kilogrammi esa qariyb 1 million so'mdan sotilgan ekan. 2023-yilda paydo bo'lgan ilk dovuchcha o'tgan yilgiga qaraganda roppa-rosa 10 barobar qimmatroq bo'ldi. Biroz keyinroq



Bekobod bozorida ham dovuchcha sotilayotganligini ko'rib narxini so'radim. Kilosi 200 ming so'm.

- Nahotki dovuchcha - pishmagan meva shuncha qimmat tursa, - deb taajjublanib so'radim.

- Aslida bu bundan ham qimmat turadi. Men arzon sotyapman, - o'zini oqlagan bo'ldi sotuvchi. So'ng shuni ham bilmaysanmi, degan kabi "Homilador ayollar uchun juda foydali. Narxi ham shunga yarasha", - deya qo'shib qo'ydi.

### YO'LKIRA NEGA OSHDI?

"O'zmetkombinat"da bir ish bilan korxonaning boshqa chekkasi-ga borgan edim. Taksichilar orasida qishda gaz yo'qligidan oshirgan narxlarini hali ham tushirmaganlar bor ekan.

Shu kuni ishdan so'ng Zafar sha-harchasiga borish uchun yana oshirilgan narxda yo'lkira to'ladim. Gazlar bemalol bo'lib qolganiga qaramay taksichilar narxni tushirgili-leri kelmayapti. Yuqori narx ular uchun foydali bo'lganidan taksichilar yanada ko'payib qolishgan.



Abiturientlar test topshirgan kuni, ayniqsa, Toshkentdan qaytishda yo'lkiralarning qanchalik ko'tarilib ketishini ko'pchilik yaxshi biladi. Taksichilar bilib turishibi: kun kech bo'lib qoldi, odamlar uyga shoshilishmoqda. Mashinalar kam. Odamlar xohlasayam, xohlamasayam aytigan narxga ko'nishga majbur.

Hayron qolasan kishi. Bu biznesmi yoki insofsizlikmi?

### SHUNDAYLAR BOR BO'LSIN!

Odamlar uchun qiyin sharoitda bozorchilar va taksichilar orasida foyda ketidan quvib insofini unutib qo'yish holatlariga ko'proq duch kel-

si faxrli 1-o'rinni egallab, Respublika final bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Navro'z bayrami arafasida "Zakovat" intellektual o'yinining Respublika bochqichi o'tkazildi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazilgan bu bosqicha "Metallurglar" jamoasi ikkinchi o'rinni egalladi.

Tadbirda tashkilotchilar tomonidan g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalarga diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.



ganman. Balki bu aynan shu toifadagi kishilar bilan ko'proq muloqotda bo'lismiz sabablidir.

Ukrainadan minglab kishilar urushdan qochib Moldaviyaga o'tishayotganda chegarada turgan xususiy taksi egalari ularni manzillariga bepul elitib qo'yishayotganligi tasvirlari butun dunyo bo'ylab tarqaldi. Insofli kishilar shahrimizda ham ko'p. Jumladan kam ta'minlangan oilalarga mahsulotlarini o'z narxidan ham arzon sotayotgan do'kon-dorlarimiz borligini ham yaxshi bilamiz.

### "INSOF SARI BARAKA"

Foyda degan joyda haromni ham unutib qo'yadiganlar ulardan o'rnak olsalar yaxshi bo'lardi.

Tijorat, aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanayotganlar paytdan foydalanib zaruriy mahsulotlarni, xizmatlar narxini sun'iy ravishda oshirish gunoh ekanligini anglashi zarur. Bu holatda o'sha tijoratchi ko'p pul topadi, lekin u pulning barakasi bo'lmaydi. Foydasidan zarari ko'p bo'ladi. Agar atrofga e'tibor va ibrat nuqtai nazaridan qarasangiz bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.

Har kimning insofini o'ziga bersin! Qimmatga ham, arzonga ham xaridor, mijoz topiladi. Biroq xalqimizning "Insof sari baraka" degan maqolini unutmeylik!

Diyor ZULFIQOROV.

"ZAKOVAT"

## ENG KUCHLILAR SAFIDA

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi tomonidan tarmoq yoshlari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Ushbu bilimdonlar bahsida Toshkent hududiy bo'linma Ken-gashi tomonidan tashkil etilgan bosqichda kombinatimizning "Metallurglar" jamoasi ham ishtirok etdi.

Mantiqiy va qiziqarli savollardan iborat bo'lib o'tgan ushbu o'yinda jamoalar o'zlarining intellektual salohiyatlarini namoyish etishdi. O'yin yakunida 20-savoldan to'plangan eng yuqori ballar natijasiga ko'ra kombinatimizning "Metallurglar" jamoa-

si faxrli 1-o'rinni egallab, Respublika final bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Navro'z bayrami arafasida "Zakovat" intellektual o'yinining Respublika bochqichi o'tkazildi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazilgan bu bosqicha "Metallurglar" jamoasi ikkinchi o'rinni egalladi.

Tadbirda tashkilotchilar tomonidan g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalarga diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

## XAVFLI O'RGIMCHAKLAR TO'DASI

### "RYODAN" CHILAR KIM?

"Ryodan" o'smirlar harakati haqida so'nggi vaqtarda ijtimoiy tarmoqlarda bir qator xabarlar berildi. Yaqin vaqtgacha bu harakat ko'plab jamoalardan biri edi. Ular o'zlarining virtual duynosida tinch va osoyishta yashardilar, hech kim ularga tegmasdi. Ular ham hech kimga tegmasdilar.

Va birdan... Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorusiya, Qozoqiston kabi davlatlarda "Ryodan" chilar muxlislari jamoat joylarida to'planishib, har tomonlama odamlar e'tiborini jalgilishni boshladilar. Janjallar chiqarishdi. Bu tomonlarning turli darajadagi tan jarohatlari olishiga, shaxslarning mulkiga zarar yetkazilishiga, ko'plab ma'muriy va jinoiy ishlarning qo'zg'atilishiga olib keldi.

Yoshixiro Togashi tomonidan manga (chizish san'ati) uslubida yaratilgan "Hunter x Hunter" animesida "Geney Ryodan" gangster guruhi mavjud edi. Guruh a'zolari o'rgimchak timsollar va katak shimplar kiyib yurishgan.

O'tgan yili "Ryodan" harakati tashkil etilganda ular yapon animatsiya (manga va anime - yapon

komikslari va multfilmlari) san'ati muxlislari bo'lib, o'smirlarni qiziqishlari bo'yicha birlashtirishdan boshqa maqsadlarni ko'zlamagan edi.

"Ryodan" chilar o'zlarining sevimli san'atlari ni muhokama qilar va shunga o'xshash kiyimlarni (orqasida o'rgimchak rasmi hamda 4 raqami bo'lgan katakl shimplar) tanlashar edi.

### HARAKATNING YANGI YO'NALISHI

Biroq, vaqt o'tishi bilan harakatdan yangi yo'nalish ajralib chiqib, ular ichida bir qator tajovuzkor shaxslar paydo bo'ldi. Ular hududdagi vaziyatni beqarorlashtirish, o'smirlarning to'liq shakllanmagan dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish orqali ularni nazorat qilishni maqsad qilib oldilar. Buning oqibatida, tarmoqdagi begona shaxslarning buzg'unchi shiorlari ta'siriga berilib ketgan bolalar jamoat joylarida to'planib, ommaviy taribbuzarliklarni uyushtira boshladilar.

"Ryodan" xalqaro yoshlar harakatining muxlislari O'zbekistonda ham bor. Joriy yilning 3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar bosh boshqarmasi tomonidan mamlakatimiz hudo-dida ham "Ryodan" tashkiloti a'zolari borligi haqida ma'lum qilingan. Ular ham negadir so'nggi vaqtida xorijdagи tengdoshlari kabi boshqalar e'tiborini o'zlariga qarata boshlashdi. Shu yilning 5-mart kuni Toshkent shahrining Yashnobod tumanida joylashgan Xalqaro forumlar saroyi binosi yonida 50 ga yaqin o'smirlar to'plangan. Ular "Ryodan" submadaniyatiga (jamiat madaniyatidan keskin farqlanuvchi bir qism) qo'shilish haqida turli shiorlar bilan

chiqishgan. Ular ommaviy tartibsizlik uyuştirish oldidan qo'lga olingen. O'rganishlar jarayonida 9 nafar voyaga yetmagan shaxslar ijtimoiy tarmoqlardagi "Ryodan" kanaliga a'zoligi aniqlandi. Barcha voyaga yetmagan shaxslar shu kunning o'zida ota-onasi yoki yaqinlari bilan birga uyiga qo'yib yuborilgan, hech kim protsessual tartibda ushlanmagan.

### BEFARQ BO'LMAYLIK!

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi farzandlarga e'tiborli bo'lishga, ularning submadaniy qiziqishlariga befarq bo'lmaslikka chaqirgan.

"Bolalarning anime va mangaga bo'lgan qiziqishini qoralab bo'lmaydi. Lekin bu qiziqishi tufayli u nomalum shaxslarning ta'siriga tushib qolmayotganligiga, virtual dunyonи haqiqatdan ajrata olish qobiliyatini yo'qotmaganligiga ishonch hosil qiling", - deyiladi ogohlantirishda.

Xabaringiz bor, hozirda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot xuruji avj olmoqda. Turli oqimlarning paydo bo'lishi ketidan, g'arazli niyatdagi shaxslar bu oqimlarni boshqarishga, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishga, aholi orasida adovat hamda vahima uyg'otishga harakat qilmoqda. Biz yurtimizda bunday oqibatlarning oldini olishimiz kerak.

### Hurmatli ota-onalar!

Farzandlaringizning hayotiga, ularda kechayotgan o'zgarishlarga befarq bo'lman: ular bilan do'stona munosabatda bo'lish orqali qiziqishlari, ishtiyoyini muhokama qiling, shu yo'l bilan ularning fikrini o'rganasiz va ularda bo'layotgan o'zgarishlarni sezish imkoningiz oshadi.

Yoshlarimizni notanish, maqsadi yovuz bo'lgan illatlardan asrash lozim. Biz yoshlarimiz ongi va ruhiyatini zaharlashga qaratilgan g'oyalar dan qat'iyat bilan himoya qilsakkina, har qanday g'arazgo'y kuchlar farzandlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydilar.

Diyor ZULFIQOROV.



\*Qilmish-qidirmish\*Qilmish-qidirmish\*Qilmish-qidirmish\*Qilmish-qidirmish\*Qilmish-qidirmish\*Qilmish-qidirmish\*

## JAHL BILAN TURGAN ZARAR BILAN O'TIRADI

Jahl chiqqanda aql ketadi, oqibatda dilga shikast yetkazuvchi achchiq so'z aytildi. O'sha damda bu nafsizmizga juda ma'qul bo'ladi. Lekin uning ortidan baxtsizlik keladi. Igna bilan quduq qaziganday topgan hamma yaxshi narsalarining jahl bir zumda suvga oqizib yuborishi mumkin. Jahl kishining eng katta dushmanidir. Buni aslo yoddan chiqarmaslik lozim.

"O'zmetkombinat" Ajda ishlaydigan Nurutdin Valiyev va Sabrina Nazarova (ism, familiyalar o'zgartirilgan) ham jahl otiga minib keyin pushaymon bo'lib qolganlardan.

Ular bir qarashda arzimagan hati-harakatlari-yu, gaplari tufayli yaqinda sudlandilar. 2022-yil 29-noyabr kuni N. Valiyev hamkasblari bilan birgalikda choyxonaga boradi. Choyxonadan chiqib, hamkasbini Bekobod shahar, 15-daha hududida joylashgan yashash xonadoniga "Kobalt" rusumli avtomashinasida olib boradi. Hamkasbining taklifi bilan uning uy oldida joylashgan ochiq ayvonida o'tirib suhbatlashib qoladi. Biroq nimagan mashinasini yo'l o'rta-sida qoldradi.

Shu orada "Yandex" kirakashlik haydovchilari orqali yashash xonadoniga dori buyurtma qilgan S. Nazarova taxminan 22.30 larda haydovchi dori vositasini olib kelganligini bilganidan so'ng, yashash

xonadonidan pastga tushadi. Uko'chalarining o'rta-sida mashina turganini ko'rib haydovchidan avtomashinasini chekkaga olishini so'raydi. O'rtada gap qochib, ular o'zaro janjallashib qolishadi.

Bu orada K. Shukurov uyiga mehmona kelgan ukasi J. Shukurovni kuzatib tashqariga chiqqanida bu ikkalasining o'zaro tortishib qolishganligini ko'radi. Aka-ukalar ularni ajratmoqchi bo'lishib, janjalga aralashib qolishadi. Janjallasha-yotgan tomonlar bir-birlarini turli xil kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqorat qilishadi. Janjal paytida N. Valiyevga tan jarohati yetkazildi.

2023-yil fevral oyining 2-kuni, Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi o'z binosida, ochiq sud majlisida bu ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Sudda N. Valiyev ayblova qisman iqrorlik bildirib, aka-uka Shukurovlarga nisbatan hech



qanday da'vosi yo'qligini, S. Nazarovaga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'raydi.

Ayblovga qisman iqror bo'lgan S. Nazarova esa uni haqorat qilganligi sababli N. Valiyevga qonuniy chora ko'rishlikni so'rab sudga ko'rsatma berdi.

Huquqbazar aka-uka Shukurovlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 52-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan huquqbazarliklarni sodir etganlikda aybli, deb topilishib, ularga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida - 300 000 so'm jarima jazosi tayinlandi.

Huquqbazarlar N. Valiyev va S. Nazarovaga esa O'zbekiston Respub-

likasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 41-moddasiga asosan, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida - 1 500 000 so'mdan jarima jazosi tayinlandi.

Jahl ustida qilingan har bir ish bu ochiq sud majlisida ko'rildi ma'muriy ishdagi holatdagidek kishilariga faqat zarar keltiradi. Jahl ustida bir-birini ranjitgandan ko'ra, vaziyatni yumshata olish aqli kishining ishidir. Jahl hayotda ko'p muammlarga sabab bo'ladi. Shunday ekan, aql bilan ish yuriting. Nafsingiz hukmiga kirsangiz, jahnga berilib, ko'p narsani yo'qotasiz.

**Farhod ZOKIROV,**  
**Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sud'yasi.**

## O'ZBOSHIMCHALAR JAVOBGARLIKKA TORTILADIMI?

Ko'p kvartirali uyda turamiz. Qo'shnim ikki xona o'rtasidagi devorni olib tashlab, mehmonxonasini kengaytirdi. Bu uyning mustahkamligiga zarar yetkazadi, desak ham gapimizga quloq solmadi. Unga nisbatan qonun bo'yicha chora ko'rildimi?

S. Nosirova.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 159-moddasiga asosan buning uchun javobgarlik belgilangan. Unga asosan ko'p kvartirali uylardagi tayanch va to'siq konstruksiyalarni qonunchilikni hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi norma-

tiv hujjatlarni buzgan holda o'zgartirgan va rekonstruksiya qilgan, shu jumladan ko'p kvartirali uylarda va ularga tutash yerlarda o'zboshimchalik bilan imoratlar (inshootlar) qurbanlar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 30 baravarigacha (6 million so'mdan 9 million so'mgacha), mansabdar shaxslarga BHMning 40 baravaridan 50 baravarigacha (12 million so'mdan 15 million so'mgacha) miqdorda jarima solinadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbazarlikni (to'siq konstruksiyalarga oid qismida) birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u ko'p kvartirali uydagi to'siq konstruksiyalarning amalga oshirilgan o'zgartirilishini yoki ularni rekonstruksiya



qilish tufayli yo'l qo'yilgan buzilishlarni, ko'p kvartirali uygaga tutash yer uchastkasida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni (inshootlarni), shuningdek ularning oqibatlarini ixtiyoriy ravishda barataf etsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

## YO'LDAGI CHUQURLAR YETKAZGAN ZARARNI KIM QOPLAYDI?

Avtomobil yo'llarda paydo bo'lgan chuqurlar transport vositalarining g'iladiraklariga jiddiy shikast yetkazadi. Hatto ayrim vaziyatlarda yo'lning nosozligi yo'l-transport hodisalariga ham sabab bo'lmoqda. Ana shunday vaziyatlarda zarar ko'rgan haydovchilar ko'rigan zararni undirib olishi mumkinmi?

A. Valiyev.

Albatta, bu juda oson ish emas, ammo qilsa bo'ladi. "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga ko'ra, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar avtomobil yo'lida nosozliklar tufayli yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirib olish huquqiga ega.

Shu qonunning 25-moddasiga ko'ra avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarga avtomobil yo'lida nosozliklar tufayli yetkazilgan zararning o'rnini belgilangan tartibda qoplashi shart.

Ma'lumot uchun, respublikani-



ng barcha umumiyo foydalanishdag avtomobil yo'llari qaysidir maxsus vakolatl organ ixtiyoroda bo'ladi. Bunda yo'lning "egasi" 3 xil tashkilot bo'lishi mumkin. Umumiyo foydalanishdag avtomobil yo'llari "O'zavtoyo'l" qo'mitasi, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalar, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari mahalliy hokimliklar, xo'jalik avtomobil yo'llari tegishli tashkilotlar va jismoniy shaxslar ixtiyoroda bo'ladi.

Sizning avtomobilingiz ham yo'lida "yama" ta'sirida shikastlangan bo'lsa o'sha yo'lni balansida saqlachi tashkilotni toping va zarar o'rni qoplab berishlarini talab qiling.

Talabingiz rad etilsa yetarli dalillarni to'plang va tegishli sudga murojaat qiling.

## FUQAROLARNING OSOYISHTALIGINI BUZGANLIK UCHUN JARIMA SOLINADIMI?

Tungi vaqtarda ba'zan kimlardir baland ovozda gaplashib yoki tovush signallari berib uyqumizga xalaqit qilishadi. Buning uchun qonunchilik hujjalarda chora belgilanganmi?

I. Abdumajidov.

Tungi vaqtda - soat 23.00 dan 06.00 gacha - fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bu vaqtda baland ovoz bilan qo'shiq aytish, musiqa chalish, tovush signallari berish, xonardonlarda, turar joylarning yo'laklari va eshiklarida, ko'chalarida ovozi baland qilib qo'yilgan televizorlar, radiopriyomniklar, magnitofonlar va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalardan foydalanish, turar joy binolarida va ulardan tashqarida juda zarur bo'limgani holda shovqin chiqaruvchi ishlar qilish, shuningdek, maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni sodir etish fuqarolar-



ga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi, mansabdar shaxslarga esa uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida, mansabdar shaxslarga esa ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 192-moddasida belgilangan.

## JAMOAT JOYLARIDA NIMALAR TAQIQLANADI?

Jamoat joylarida qanday xatti-harakatlarni sodir etilishi taqiqlanadi?

V. Salimboyev.

Qonunchilikka ko'ra, jamoat joylarida quyidagilar taqiqlanadi:

- tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek chilim va elektron sigaretalar chekish;

- uyatli so'zlar bilan so'kinish, haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarni sodir etish;

- alkogol mahsulotini iste'mol qilish;

- tilanchilik qilish;

- ro'yxatdan o'tkazilmagan bayroqlar va vimpellardan foydalanish;

- it va mushuklarni tumshuqbog'siz va yetovsiz olib yurish;



- karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatl organning maxsus talablariga zid ravishda niqobsiz bo'lish.

Jamoat joylarida mazkur xatti-harakatlarni sodir etish tegishlicha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

## XARAJATLARNI KIMLAR QOPLAYDI?

Elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suv hisoblagichlarda nosozlik aniqlansa, ularni ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish xarajatlari tegishlichcha hududiy elektr tarmoqlari korxonalari, gaz ta'minoti tashkilotlari, suv ta'minoti yoki hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-avgustdagi "Yuridik va jismoniy shaxslarning elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskulalari (hisoblagichlarni) yechish, qি-

V. Siddiqov.

Elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suv hisoblagichlarni ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish xarajatlari tegishlichcha hududiy elektr tarmoqlari korxonalari, gaz ta'minoti tashkilotlari, suv ta'minoti yoki hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-avgustdagi "Yuridik va jismoniy shaxslarning elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskulalari (hisoblagichlarni) yechish, qи-



yoslashdan o'tkazish va o'rnatish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 698-sonli qarorida belgilangan.

Hisoblagichlar uchun ortiqcha mablag' undirish kabi holatlarda 1008 va 1148 ishonch raqamlariga qo'ng'iroq qiling.

**Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.**

## BARCHA XASTALIKLAR SABABCHISI – NOTO'G'RI OVQATLANISH

*Inson organizmining o'sishi, me'yoriy rivojlanishi va hayot kechirishi hamda salomatligi sog'lom ovqatlanishga bog'liq.*

## SALOMATLIKNING ENG ODDIY HAQIQATLARI



### Kasalliklar sababchisi

Dunyodagi yetakchi ilmiy markazlarda olib borilgan kuzatuvlarda hayvon yog'idan va yuqori sifatlari un mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar hamda shirinliklarni me'yordan ortiq tanovul qilish, ovqatlanish tartibi va ritmiga amal qilmaslik oziq-ovqatlarning asosiy tarkibiy qismi o'rtafiga muvozanatning buzilishiga va oqibatda kasalliklar kelib chiqishiga olib kelishi tasdiqlanmoqda.

Mamlakatimiz rahbarining "Ahollining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori zamirida ham kasalliklarning oldini olish nazarda tutilgan.

### Bir kunda necha marta ovqatlanish kerak?

Tibbiy nuqtai nazardan, kunda to'rt marta va har kuni bir vaqtida ovqatlanish maqsadga muvofiq. Uning taxminan 25 foizi bиринчи nonushtaga, 15 foizi ikkinchi nonushtaga, 35 foizi tushlikka, 25 foizi esa kechki ovqatga to'g'ri kelishi sog'lom ovqatlanishning asosiy shartidir. Ovqatlanganda uning tarkibiy qismiga e'tibor

berish juda muhim. Oqsilga boy oziq-ovqatlar asab tizimi qo'zg'aluvchanligini oshirgani sababli ularni kunning bиринчи yarmida, ya'ni inson faol harakatda bo'lgan davrda iste'mol qilish ma'qul. Aks holda, uyquni qochiradi yoki chuqur uyqu holati yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi. Kechki ovqat kunlik ovqatlanishning ko'p qismini tashkil etganda yog'larning oksidlanishi to'liq kuza tilmay, semirishga moyillikni keltirib chiqaradi.

### Qachon va nima yegan yaxshi?

Sog'lom ovqatlanishni tashkil etish ozuqalarning yaxshi hazm bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Taom yeyish miqdori va sonining ko'payishi ovqat hazm qilish markazi qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi va ishtahani susaytiradi. Kechki ovqat uyqudan kamida 2-3 soat oldin iste'mol qilinishi kerakligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Go'sht va baliqdan tayyorlangan taomlar (shu jumladan, yog'li), asosan, ertalab va kunduzi iste'mol qilinishi lozim. Kechki ovqat tarkibida osh tuzi keskin chegaralanishi, ko'proq sutli taomlar bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki ular uyqu vaqtida organizmning fiziologik faolligini o'zgartirmaydi. Ulardan farqli o'laroq, tuzli va go'shtli ovqatlar yurak-qon tomir hamda nafas tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qon bosimini, yurak urishi va nafas soni pasayishi emas, aksincha, ko'payishiga olib keladi.

### Kunlik taomnoma

Kunlik taomnomada sabzavot va mevalardan tayyorlangan salatlar, vinegretlar, karam, pomidor, bodring, qovoq, kashnich yetarli darajada bo'lishi, dukkaklilar, ya'ni no'xat, loviya, mosh, shuningdek, turli qo'zqorinlar chegaralangan miqdorda ishlatalishiga ahamiyat beriladi. Pishloq va tvorogning ham yog'sizlantrilgan sutdan tayyorlanganlari foydalidir. Ichish uchun achchiq bo'limgan choy, meva sharbatlari, o'tli damlamalar tavsiya etiladi. Bir so'z bilan aytganda, ovqat ratsioni turli-tuman bo'lishi va ular inson organizmiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi qarilik va kasallikka olib keluvchi jarayonlarni to'xtatish yoki sekinlashtirishga sabab bo'ladi.



### IBN SINODAN MASLAHAT

Tibbiyot ilmi sultoni Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida to'g'ri ovqatlanish va uning ahamiyati to'g'risida to'xtalib, "Kimki sog'lom turmush tarziga erishmoqchi bo'lsa, o'z sog'lig'in saqlamoqchi va mustahkamlamoqchi bo'lsa, ovqatlanish tartibiga, iste'mol qilinayotgan ovqatning sifatiga, miqdoriga, ovqatni iste'mol qilish vaqtiga va uning hazm bo'lish jarayoniga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozim", deb ta'kidlagan.

**Abu Ali ibn Sino to'g'ri ovqatlanish bo'yicha quyidagi 5 ta tamoyilga amal qilishni tavsiya qilgan:**

- ovqatni faqat ochlik hissi bo'lganda iste'mol qilish;
- yangi pishirilgan ovqatlarni iste'mol qilish;
- taomni ruhiy va jismoniy tinch holda iste'mol qilish;
- sekin, shoshmasdan, yaxshilab chaynab yeyish;
- ovqatni ko'p is'temol qilishdan tiyilish.

Shuningdek, Ibn Sino "Tib qonunlari"da mijoz konsepsiyasini ishlab chiqadi. Unga ko'ra, inson mijozini oziq-ovqat mijozini bilan mos kelishi lozim. Yo'qsa, turli kasalliklar rivojlanishi mumkin.

## KASALLIKLARNING ONASI...

*Barcha kasalliklarning onasi nosog'lom ovqatlanishdir. Sog'lom ovqatlanish bilan 90 foiz kasalliklarning oldini olish mumkin.*

### Jumladan:

- oshqozon-ichak yallig'lanishi, yara, saraton kasalliklari;
- jigar kasalliklari: hepatoz, hepatit, sirroz;
- yurak-qon tomir kasalliklari: ateroskleroz, stenokardiya, infarkt;
- gormonal kasalliklar: qandli diabet, tireotoksikoz;
- ruhiy va yana boshqa ko'plab kasalliklarning oldini olish mumkin.

Oqilona ovqatlanish sog'liqni asrab va mustahkamlab, tashqi muhitning zararli ta'sirlariga organizmning qarshiligidini oshiradi, yuqori aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatini hamda faol uzoq umr ko'rishni ta'minlaydi.

\*\*\*

Quyoshli zaminimizda yetishtiriladigan meva-sabzavotlarni butun dunyo sevib iste'mol qilsada, o'zbekistonliklarning 67 foizi kuniga 400

## BILIB OLGAN YAXSHI

gramm meva-sabzavot iste'mol qilish mustahkam sog'lik garovi ekanidan bexabar. Natijada yuqumli bo'limgan, ya'ni, giper-toniya, yurak kasalliklari, temir tanqisligi anemiyasi kabi xastaliklar inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, erta o'lim holatlariga sabab bo'lmoqda.

\*\*\*

Mutaxassislarning qayd etishlaricha, mamlakatda 10,7 million aholi sog'lom turmush tar-

zini olib bormaydi. Ahollining 16,5 foizi tamaki va 4,7 foizi alkogol iste'mol qilishi, 16 foizi meva va sabzavotlarni yetarli miqdorda iste'mol qilmasligi, 36,6 foizi taomga qo'shimcha tuz qo'sishi, 32,9 foizida ortiqcha vazn va 23,5 foizida semizlik mavjudligi, 38 foizida yuqori arterial bosim va 8,4 foizi qonida qand miqdoring yuqoriligi, 26 foizining esa jismoniy faolligi sustligi aniqlangan.

## KECHASI SAQLANISH KERAK BO'LGAN TAOMLAR

**Makaron.** Yotishdan oldin iste'mol qilingan makaron kechasi tananing tiklanishiga xalaqit beradi, shuning uchun kechki taom uchun "sovg'a sifatida" ertalab ko'z ostida qora doiralar va charchoq paydo bo'ladi.

**Pishloq.** Hazm qilish juda qiyin bo'lgan va oshqozonda yallig'lanish reaksiyasini keltirib chiqaradigan yog'lar mavjud. Pishloq uchun eng yaxshi vaqt ertalab va tushlikdir.

**Gulkaram.** Hazm qilishni qiyinlashtiradi, shuning uchun yotishdan oldin gulkaram yaxshi tanlov emas.

**Qora shokolad.** Antioksidantlar va miya faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan, energiya va quvvat beruvchi moddalarga boy. Shuning uchun, kechqurun asab tizimini keraksiz ravishda qo'zg'atmasligingiz va uyquni to'xtatmasligingiz kerak.

Navro'z bayrami kunlarida va Ramazon oyi arafasida orziqib kutilgan quvchli xabar keldi. Osiyo Futbol Konfederatsiya-sining maxsus komissiyasi "Metallurg" FK "El Golazo Academy Powered by Real Madrid" bolalar va o'smirlar futbol akademiyasini "ikki yulduz" maqomi bilan taqdirladi.

### FUTBOL AKADEMIYASIGA "IKKI YULDUZ" MAQOMI BERILDI

### "BAVARIYA" VA "YUVENTUS" LAR BILAN BIR QATORDA

Nufuzli yoshlar dasturining to'liq a'zosi maqomini olish uchun OFKning maxsus komissiyasi milliy assotsiatsiyalarni 20 ta asosiy mezon bo'yicha baholaydi.

Ular rahbarlar, rejalashtirish, jamoa jihozlari, mashg'ulotdan toki sog'liqni saqlash va ta'limgacha bo'lgan to'liq jarayonlarni qamrab oladi.

Bunday maqom nafaqat faxr, balki ayni paytda ulkan mas'uliyatdir. Endilikda klub akademiyasi OFKdagi mashhur akademiyalarga tenglashtirilgan: xususan, Yaponiyaning "Fukushima" klubni va Janubiy Koreyaning "Seul" klublari OFKda mana shunday maqomga ega.

Taqqoslash uchun, UEFA da "Bavariya" va "Yuventus" ikki



yulduzli maqomga ega. Eng yuqori - "Uch yulduz" maqomi esa dunyoning bir necha akademiyalariga, jumladan, Gollandiyaning "Ayaks", Portugaliyaning "Portu", Ispaniyaning "Barselona" siiga berilgan...

Osiyoda esa faqat Qatardagi "Espayr" akademiyasi, bugungi kunda butun dunyoga tanilgan, shunday maqomga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, OFKning nufuzli yoshlar dasturining haqiqiy a'zosi maqomiga ega bo'lgan akademiyalar konfederatsiya shafeligidagi o'tkaziladigan tadbir va musobaqalarda ishtiroy etishda OFK imtiyozlaridan foydalanadilar.

COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA.

### BOSHLANISHI O'XSHAMADI, BIROQ...

#### YIRIK MAG'LUBIYAT BILAN BOSHLANDI

Mamlakat milliy championatining 1-turini 3-mart kuni Bekobodda besh karra O'zbekiston championi Farg'onanining "Neftchi" jamoasiga qarshi o'tkazgan "Metallurg" yirik hisobda mag'lubiyatga uchradi - 0:3.

O'yin mehmonlarning katta ustunligi ostida o'tdi. Hududiy tashabbusni hamda maydon markazini boy berib qo'yan Luisma Hernandes shogirdlari birinchi taymning o'zidayoq o'z darvozasidan ikkita to'p olib chiqishga majbur bo'lishdi. Avvaliga himoyachilarimiz Mirzohid G'ofurovga bosh bilan aniq zarba berish imkoniyatini qoldirishdi. 33-daqiqada esa chiroyli kombinatsiyani Umar Adhamzoda gol bilan yakunladi.

Tanaffusdan keyin maydon egalari asosiy e'tiborni hujumga qaratdi. Himoyani mustahkam ushlagan farg'onaliklarning qarshi hujum takkisi uchrashuv yakunida yana o'z samarasini berdi. Uchrashuv qahramoni Umar Adhamzoda dublini rasmiylashtirdi.



#### OMADSIZLIK DAVOM ETDI

Mamlakat XXXII milliy championatining 2-turida 11-mart kuni jamoamiz ilk safar uchrashuvida ham mag'lubiyatga uchradi. Bu gal "Navbahor" o'z maydonida "Metallurg"ga imkoniyat qoldirmadi - 3:0.

Uchrashuv maydon egalarining katta ustunligi ostida o'tdi. "Metallurg" mazkur uchrashuvda birinchi navbatda o'z darvozasi dahlsizligini saqlab qolishga harakat qildi. Ammo 36-daqiqada Jamshid Boltaboyevning mahorati barchasini chippakka chiqardi. U chap qanotda ikki himoyachimizni aldab, darvozaning olis burchagini aniq nishonga oldi. Bu to'pni qaytarish amri mahol edi.

Mehmonlar hali o'zlariga kelib ulgurishmasidan Jasur Yaxshiboyev ham o'z ismi sharifini tabloga yozdirib qo'ydi.

Hakam tomonidan o'yinga qo'shib berilgan kompensatsiya vaqtida Jamshid Iskanderov hisobni yirik ko'rinishga keltirib qo'ydi.

Kombinatda mehnat qilayotgan 30 yoshdan oshmagan yoshlar ishtirokida Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda sexlar o'ttasida "Boshqaruv raisi kubogi" mini-futbol musobaqasi yakuniga yetdi.

Musobaqada birinchi o'rinni Zoldir prokat sexi, ikkinchi o'rinni Tajriba konstrukturlik laboratoriysi, uchinchi o'rinni Idoraviy harbiyashtirilgan qorovullik bo'limi qo'liga kiritishdi.

G'olib va sovrindor



#### MUHIM G'ALABA

Taqvimning biroz noqulayligi hamda grand jamoalarga qarshi mavsumni boshlagan "Metallurg" ketma ket ikki mag'lubiyatdan so'ng qiyin ahvolga tushib qolgandi. 19-mart kuni 3-turda "Qizilqum"ga qarshi kechgan bahsdagi yutuq shu jihatdan jamoaga juda zarur edi.

Bahs mezbonlarning katta ustunligi ostida o'tdi. Ortga chekinishga yo'li qolmagan bekbodliklar omadni faqat raqib jarima maydoni ichidan qidirdi. Bu esa navoiyliklarga katta bosim tushirdi. Natijada o'yinchilarining asabiylashishi oqibati "Qizilqum" jamoasiga pand berdi. Birinchi taym oxirida Nikolay Tarasov hakamni haqorat qilganligi sabab maydondan chetlatildi. Bir kishi ko'p bo'lib qolgan mezbonlar esa ikkinchi taym o'ttasida son ustunligini hisobda ham aks ettirishdi. Shahzodbek G'ofurbekovning olis masofadan yo'llagan zarbasi mo'ljalga aniq yetib bordi - 1:0.

Bu hisob esa uchrashuv oxirigacha o'zgarmay goldi.



\*IBRATLI HIKOYALAR\* IBRATLI HIKOYALAR\* IBRATLI HIKOYALAR\* IBRATLI HIKOYALAR\* IBRATLI HIKOYALAR\* IBRATLI HIKOYALAR\*

## AKA-UKA MEHRI

Ota-onasidan meros qolgan yerda aka-uka birgalikda dehqonchilik qilar edi. Ularning biri oilali bo'lib, uning beshta farzandi bor edi. Ikkinchisi esa bo'ydoq edi. Mavsum so'ngida aka-uka hosilni teng bo'lismib olar edi.

Kunlarning birida ukasi:

- Hosilimizni teng bo'lismib olayotganimiz aslo adolatdan emas. Men bo'ydoqman va ehtiyojim unchalik katta emas. Akamning esa oilasi katta, uning xarajatlari ham shunga yarasha, - deb o'yldi.

O'sha kundan boshlab bo'ydoq uka har kuni yarim tunda uyidan chiqib, o'zining omboridan bir qop bug'doyni yelkalab olib hech kimga sezdirmasdan borib ukasining omboriga qo'yib kelishni odat qildi.

O'sha kunlarda akasi ham o'ziga o'zi:

- Hosilimizni teng bo'lismib olayotganimiz aslo adolatdan emas. Men oilaliman, ayolim va farzandlarim bor. Qarigan chog'imda ular meni parvarish qiladilar. Uka bechora qariganda unga kim qaraydi! Demak, kelajakda uning ehtiyoji katta bo'ladi, - dedi.

Shundan so'ng aka ham har kuni yarim tunda uyidan chiqib o'zining omboridan bir qop bug'doyni yelkalab olib hech kimga sezdirmasdan borib ukasining omboriga qo'yib kelishni odat qildi.

Aka-uka o'rtaida bu ish ko'p yillar davom etdi. Ammo hech kim bu ishni



sezmadni. Negaki, ikkovining ham omboridagi bug'doyning miqdori o'zgarmas - kamayib yoki ko'payib qolmas edi. So'ngra bir kecha aka-uka bir-birining omboriga bug'doy olib borayotganda yuzlashib qoldilar va o'shanda bo'lib o'tgan ishni angladilar. Yelkalarida qopni yerga qo'yib, bir-birini qattiq bag'riga bosdilar.

Damin JUMAQUL tarjimasi.

Jon Bannister asli Olmoniyalik. Angliyadagi Oksford universitetida ishlar edi. U 65 yoshga to'lgach universitet qonunlariga ko'ra uni nafaqaga chiqarishdi. Ammo u taslim bo'lmadi. Ishni davom ettirish uchun Amerikaga safar qildi. U Texas universitetiga ishga joylashdi. Chunki u universiteda ustozlarni nafaqaga chiqarishmas edi.

## UMIDNI SO'NDIRMANGLAR

Mard kelding, mard ketgil, toqating toq bo'lsa ham, o'tma nomard ko'prigidan suv seni oqizsa ham.

\*\*\*

Yiqilganni turg'izmoq uchungina egil.

\*\*\*

Hakimlar aytadi:  
Sinalmagan do'stga va sinalgan

dushmanga ishonmoq katta xato.

\*\*\*

Ming do'sting bo'lsa, uni ko'p dema, bitta dushmaning bo'lsa, uni oz dema.

\*\*\*

Agar yer yuzida hamma narsa a'lo bo'lganda edi, a'lo narsaning o'zi bo'lmashdi.

## QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

### SO'QIR

Bir ko'zi ojiz odam yonida o'tirgan kishidan so'radi:

- Quyosh juda chiroyli bo'lsa kerak-a!?

- Bilmasam, e'tibor bermagan ekanman.

**Shahobiddin Luqmon.**

### TARBIYA

- Katta o'g'lingning tarbiyasiga qarasang bo'lmaydimi - dedi ota televizordan ko'zini uzmay xotiniga. - Kun bo'yi telefon o'ynarmish.

- Hayronman qaerdan o'rganyapti, ustozlari yaxshi qaramayotgandir-da, ertaga borib gaplashib kelaman - dedi ona va yig'layotgan chaqalog'iga telefon dan video qo'yib berib, o'zi serialini ko'rishga o'tirdi.

Sofiya

### MADDOH

- La'nati maddohlarning tilini kesib, o'ziga yedirish kerak, - dedi boshliq majlisda.

- To'ppa-to'g'ri aytasiz, mammakatimizning bo'lajak prezidenti, - degan ovoz keldi orqadan.

### OTANGGA CHO'P OTSANG...

O'g'il o'z otasini "Qariyalar uyiga" eltar ekan hech ham kela-jagini o'ylamadi. Ota esa bu mas-kanga qadam qo'yar ekan, tanish manzaradan lablari titradi:

- Bu yerlar ancha o'zgarib ketibdi, men kelganimda eski-gina bino edi - titroq ichida o'z otasining ajin bosgan yuzini esladi-yu, o'g'liga achinish bilan qarab qo'ydi...

## BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Er xotiniga shunday shart qo'yibdi:

"Shunday ovqat tayyorlaki, unga 4 quti tuz ketsin. Lekin ovqat sho'r bo'lmasin..."

Xotini ovqat pishiribdi, eri u ovqatdan xursand bo'libdi. Ovqatni das-turxon ustida yana tuz bilan yeyishibdi.

Savol: Ayol qanday ovqat tayyorlagan?

\*\*\*

Bir kishini uzoq muddatga qamashibdi. Qamoqxona boshlig'i senga savol beraman, javobini topsang ozod qilaman, debdi. Hamma uyda bor. 8 harfli, oxirgi 3 harfi "zor" lekin "Televizor" emas.

U odam topa olmabdi. Qamoqdan chiqqanidan so'ng uyiga borib, eshikdan kirsa o'shangacha ko'zi tushibdi-yu, yuragi to'xtab qolishiga sal qolibdi. Bu nima bo'lishi mumkin?

\*\*\*

Qizil dengizni nima uchun qizil deb atashadi?

\*\*\*

### Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

"Beruniy" asri. Yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust - "Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni" sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Hech qanday hayvon xonakilashtirilmagan. Tasqara. Xitoyda. Suv yo'llarining ochilishi.

### ҲАЗИЛОМУЗ МАСЛАХАТ

**Siz ro'za tutishga qiyalsangiz unda Ramazon oyining boshida 10 kun, o'rtaida 10 kun va oxirida 10 kun ro'za tuting.**

### XANDALAR

- Hoy qo'shni, o'g'lingiz meni sigir deb haqorat qildi!

- Obbo, yaramas-yeys! Ming marta aytganman odamlarni tashqi ko'rinishiga qarab baholama deb!

- Oyi, dadamga kecha bozordan olgan narsalaringizni ko'rsatdingizmi?

- Yo'q, hozircha ko'rsatganim yo'q. Nima edi?

- Unday bo'lsa, kayfiyatlarini yaxshiligidan men avval kundaligimni ko'rsatib olay!